# TA‘LIM VA TARBIYA JARAYONIDA MOSLASHUVCHANLIK TUSHUNCHASI TALQINI

[1]Dehqonova Muborakxon G‘iyosiddinovna
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,
[2]G‘ulomnazarova Ozoda Qahramon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, logopediya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,
https://doi.org/10.5281/zenodo.7384802

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta‘lim tarbiya jarayoni, unga ta‘sir etuvchi omillar, turli psixologik kamchiligi bo‘lgan shaxslarda uning talqini, psixologik nazar va yechimi xususida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar**: xulqi og‘ishgan, axloq, ta‘lim, tarbiya, bilim, moslashuvchanlik.

Ta‘lim va tarbiya borasida ko‘pchilikni o‘yga toldiradigan bir tushuncha mavjud bo‘lib *og‘ishgan xulq*. Bu hammadan avval shaxs axloqining allaqanday shakli, albatta, unga insoniy axloqning barcha xususiyatlari xos, biz ham o‘z tahlilimizni aynan shuni ko‘rib chiqishdan boshlaymiz.

Psixologiyada axloq atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushohadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko‘rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bixevioristlar uni psixologik fanning predmeti deb e‘lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Dastlab axloq tushunchasi ostida shaxsning istalgan tashqi kuzatiluvchi, “rag‘bat – reaktsiya” sxemasi bo‘yicha ishlaydigan reaktsiyasini (harakatlanuvchan, vegetativ, nutqiy) tushundilar. Empirik ma‘lumotlarning to‘planish darajasi bo‘yicha inson axloqining tabiati yanada chuqurlashdi. 1931 yilda esa axloqiy psixologiyaning asoschilaridan biri Djon Uotson axloq to‘g‘risida “tuxumni mahsuldor qilish lahzasida dunyoga keluvchi va organizmning rivojlanishi darajasi bo‘yicha yanada murakkablashib boruvchi faollikning uzluksiz oqimi” haqida gapirgan kabi gapirgan edi.

Axloqning zamonaviy tushunchasi tashqi rag‘batga reaktsiyalar to‘plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug‘atda axloq “tirik mavjudotga xos bo‘lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sirdir”. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko‘rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaktsiyalar tushuniladi. Quyidagilar axloqning ichki tarkibi bo‘lib hisoblanadi: motivatsiya va maqsad qo‘yish, kognitiv ishlov berish, hissiy reaktsiyalar, o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlari. Kelgusi muhokamalarda axloq tushunchasi ostida biz shaxsning individual xususiyatlari va shaxsning tashqi harakat hamda

muomalasi shaklida ifodalanuvchi ichki faolligi bilan muhit bilan oʻzaro harakati jarayonini tushunamiz.

Taʻrifga ega boʻlgach oʻrganilayotgan reallikning asosiy belgilarini ajratishga urinamiz. Inson axloqining birmuncha muhim xususiyatlaridan biri – bu uning oʻz mohiyati boʻyicha ijtimoiyligidir, u jamiyatga shakllanadi va amalga oshadi. Inson axloqining boshqa muhim xususiyati – bu uning nutqiy boshqaruv va maqsad qoʻyilganligi bilan mustahkam aloqasi hisoblanadi. Yaxlit olganda insonning axloqi uning ijtimoiylashuvi jarayonini – jamiyatga integratsiyasini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, oʻz navbatida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni koʻzda tutadi. Moslashuv – individuallashuv jarayonlarining nisbati boʻyicha, shuningdek, jamiyatda shaxs mavqei yuzasidan ijtimoiy moslashuvning quyidagi variantlarini ajratish mumkin:




Muayyan inson axloqida ijtimoiylashuvning istalgan variantida axloqning umumiy tavsifnomasidan foydalanib, quyidagilarni ifodalash mumkin:




Shaxs xulq uning shunday belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo‘lmagan ahamiyatga egadir:




“Axloq” turidagi tushunchaning barcha ko‘rib chiqilgan tavsifnomalari uning “shaxsning og‘ishgan xulqi” kabi turiga ham to‘la ma‘noda taalluqlidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Тошкент: Адолат, 2015. – 393 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. –Тошкент:

Адолат, 2015. –728 б.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддаси. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 20-сон, 221-модда.

4. Абдурасулова Қ., Ниёзова С. Жиноятчилик ва жиноятчи шахси муаммолари: Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – Б. 58.

5. Абдурасулова Қ.Р. Криминология. Дарслик. / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Ҳ. Рустамбоев. – Тошкент: ТДЮИ, 2008. – Б. 116.

6. Зарипов З., Исмаилов И. Криминология: Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1996.

7. Мусаев М.А. Ҳаётга қарши жиноятлар: назария ва амалиёт муаммолари. – Тошкент: Шарқ, 2011.

8. Ниёзова С. Кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида қасддан одам ўлдирганлик учун жиноий жавобгарлик. –Тошкент: ТДЮИ, 2005. – Б. 15.

9. Ниёзова С.С. Жиноятларнинг виктимологик профилактикаси: Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮИ, 2012.

10. Рустамбаев М.Ҳ. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Т.1. Умумий қисм. Жиноят тўғрисида таълимот. Дарслик. – Тошкент: ILM ZIYO, 2010. – Б. 34.

11. Рустамбаев М.Ҳ. Ўзбекистон Республикасининг жиноят ҳуқуқи курси. Т.3. Шахсга қарши жиноятлар. Тинчлик ва хавфсизликка қарши жиноятлар: Дарслик. – Тошкент: ILM ZIYO, 2011.